

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**I.R.Asqarov, M.M.Mo'minov, U.Sh.Xusanov**

Gulxayri (*Althaea officinalis L.*) o'simligini kimyoviy tarkibi, gulxayri moyini elementlar analizi va uning xalq tabobatidagi axamyati ..... 117

**BIOLOGIYA****Sh.X.Yusupova, I.I.Zokirov**

No'xat agrotsenozi zararli entomofaunasining ekologo-faunistik tahlili  
(Shimoliy Farg'ona misolida) ..... 124

**K.Zokirov, A.K.Xusanov, O.T.Sobirov, M.F.Xafizddinov, D.A.Saidjaxonova,  
S.T.Tillayeva, A.A.Kozimov**

Sharqiy Farg'ona sharoitida terak qabariq qalqondori (*Diaspidiotus slavonicus*  
(green, 1934)ning biologik va zoogeografik xususiyatlariga oid ..... 132

**Z.J.Isomiddinov, D.A.Mirzaliyeva**

Xushbo'y shivit (*Anethum graveolens L.*) o'simligining biokimyoviy xossalari ..... 140

**F.I.Xalmetova, X.S.Axmedov, S.N.Buranova, A.N.Botirbekov**

Reaktiv artritning genetik jihatlari ..... 143

**M.R.Shermatov**

Farg'ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqa notli hasharotlarining  
(insecta: Lepidoptera) zoogeografik tahlili ..... 147

**K.Z.Yakhyeva, F.F.Xoltayeva, K.K.Aliyeva**

Chaqaloqlarda buyrak patologiyasi sabalari ..... 154

**M.A.Raximov**

Mollarni go'shtga boqishda genetik imkoniyatlardan samarali foydalanish ..... 158

**M.X.Mirraximova, N.Y.Nishonboeva**

Genining polimorfizmi atopik dermatitda ..... 162

**G.M.Zokirova**

Farg'ona vodiysi sharoitida *Cinara tujafilina* (Del Guercio, 1909) shirasining  
(Homoptera, Lachnidae) biologiyasi ..... 166

**E.A.Botirov**

Janubiy Farg'onaning Agrotis avlodni tunlam kapalaklari faunasi va ekologik xususiyatlari ..... 170

**G.M.Duschanova, N.A.Sobirova, D.A.Abdullahayev**

Toshkent botanika bog'i sharoitida *Eremurus lactiflorus* O. Fedtsch. (Xanthorrhoeaceae)  
o'simligi bargining strukturaviy xususiyatlari ..... 176

**F.M.Abduvaliyeva, Sh.S.Xushmatov**

Andijon shahrida joylashgan №1-son mакtab o'quvchilarining (1-11 sinf)  
anfimova testi asosida intellektual rivojlanish darajasi tahlili ..... 182

**GEOGRAFIYA****Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev**

Aholining hududiy taqsimlanishini tahlil qilishida zamonaviy iqtisodiy-geografik  
tadqiqotlarning zarurati ..... 187

**ILMIY AXBOROT****G.M.Mansurov**

Nemis tili darslarida til o'yinlari yordamida suhbatlashish qobiliyatlarini  
rivojlantirishni o'rganish ..... 192

**N.A.Sharopova**

Qashqadaryo viloyati umumta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini  
mustahkamlash tadbirlari va ularning natijasi ..... 196

**O.A.Maniyozov, A.A.Bozorqulov, O.S.Isomiddinova**

Ta'lrim jarayonida birinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglamalarni yechimini  
maple dasturida topish ..... 199

**D.O.Qarshiyeva**

Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kuest texnologiyasi asosida darslarni tashkil etish  
kompetentligini rivojlantirish ..... 203

**G.B.Nafasova, B.S.Abdullayeva**

Bo'lajak fizika o'qituvchilarining ilmiy-mantiqiy dunyoqarashini shakllantirish ..... 208

**FRAZEOLOGIK BIRLIKLER VA ULARNING SEMANTIK TAHLILI****ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ ИХ СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ****PHRASEOLOGICAL UNITS AND THEIR SEMANTIC ANALYSIS****Alimova Zarifaxon Vaxobovna<sup>1</sup>, Soxibova Umidaxon Akmaljon qizi<sup>2</sup>****<sup>1</sup>Alimova Zarifaxon Vaxobovna,**– Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi,  
f.f.f.d.(PhD)**<sup>2</sup>Soxibova Umidaxon Akmaljon qizi**– Farg'ona davlat universiteti lingvistika yo'nalishi  
magistranti**Annotatsiya**

Mazkur maqolada frazeologizmlar yaxlitligicha yoki muayyan so'zning ko'chma ma'noda qo'llanishi asosida yuzaga kelishi, shu bois ular nutqning erkin sintaktik birliklaridan farqli ravishda, tilning turg'un birikmalari hisoblanishi, so'zlar singari tilning lug'avyi birliklari qatoridan o'tin egallashi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada frazeologik iboralar va ularning semantic xususiyatlari, frazeologik birliklarni o'rganishning metod va usullari haqida, frazeologizmlar yaxlit bir ma'no ifodalasa-da, lekin frazeologik ma'no jihatdan leksik ma'nodan farq qilishi, frazeologizmlar semantic jihatdan so'zlardan farqli ravishda belgi, xususiyatlarga ega bo'lgani uchun ham, tilda paydo bo'lgani, o'zaro bog'langan bu so'zlar mohiyatiga ko'ra birikmaga yoki gapga teng bo'lishi, bunday birikma yoki gapdan yaxlitligicha anglashiladigan frazeologik ma'no uni sintaktik birlik deb emas, balki semantic birlik deb qarashga olib kelishi haqida so'z boradi.

**Аннотация**

В данной статье идёт речь о том, что фразеологизмы выступают в целом или на основе употребления конкретного слова в переносном значении, поэтому считаются устойчивыми сочетаниями языка, в отличие от свободных синтаксических единиц речи, не входят в число лексических единиц языка, как слова, говорят о захвате. Также в статье рассматриваются фразеологические выражения и их семантические свойства, способы и методы изучения фразеологизмов, хотя фразеологизмы выражают единое значение, но фразеологически они отличаются от лексического значения, фразеологизмы семантически отличны от слов. появляется в языке, эти взаимосвязанные слова по существу равны составному или предложению, и фразеологическое значение, которое можно понять из такого сложного соединения или предложения в целом, означает не то, что оно является синтаксической единицей, а является сказали, что это приводит к тому, что его рассматривают как семантическую единицу.

**Abstract**

This article talks about the phraseologisms appear as a whole or on the basis of the use of a specific word in a figurative sense, therefore, they are considered stable combinations of the language, unlike free syntactic units of speech, they are not among the lexical units of the language, like words. there is talk of taking over. Also, the article discusses phraseological expressions and their semantic properties, methods and methods of studying phraseological units, although phraseological units express a single meaning, but phraseologically they differ from lexical meaning, phraseological units are semantically different from words. , due to the fact that it appears in the language, these interconnected words are essentially equal to a compound or a sentence, and the phraseological meaning that can be understood from such a compound or a sentence as a whole does not mean that it is a syntactic unit , but it is said that it leads to being considered as a semantic unit.

**Kalit so'zlar:** frazema, frazeologik birikma, frazeologik butunlik, sintaktik tahlil, kategorial belgi, , frazeologik chatishma, frazeologik qo'shilma, nominativ frazemalar, komunikativ frazemalar, frazeologik polisemiya, frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya, frazeologik omonimiya va paronimiya.

**Ключевые слова:** словосочетание, фразеологическое сочетание, фразеологическое целое, синтаксический анализ, категориальный признак, фразеологическое сочетание, фразеологический состав, номинативные словосочетания, коммуникативные словосочетания, фразеологическая полисемия, фразеологическая синонимия, фразеологическая антонимия, фразеологическая омонимия и паронимия.

**Key words:** phrase, phraseological combination, phraseological whole, syntactic analysis, categorical sign, phraseological combination, phraseological compound, nominative phrasemes, communicative phrasemes, phraseological polysemy, phraseological synonymy, phraseological antonymy, phraseological homonymy and paronymy.

**KIRISH**

Frazeologik birliklar til egasi bo'lgan xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash tarzi, o'tmishi, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog'liqidir. Uzoq muddatli taraqqiyot mahsuli hisoblangan frazeologik birliklar jamiyat tajribasini aks ettirib, uni bir avloddan ikkinchisiga yetkazadi. Jahon tilshunosligida frazeologik birliklarni o'rGANISH bo'yicha katta ishlar amalga

## ILMIY AXBOROT

oshirilgan. Frazeologik birlıklar kelib chiqishi jihatdan juda qadimiy bo'lsa-da, frazeologiya fani tarixi qariyb ikki asrni o'z ichiga oladi [1,77].

Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir qismi bo'lib shakllanganiga hali ko'p vaqt bo'Imagan bo'lsa-da, uning kelib chiqish tarixi til taraqqiyotining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Ilmiy tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, frazeologik birlıklar til bilan birga paydo bo'lib, til bilan birgalikda rivojlanib kelgan. Ammo jamiyatning turli davrlarida ularning o'rni va ahamiyati turlicha baholanadi.

Frazeologizmlar semantik jihatdan so'zlardan farqli belgi xususiyatlarga ega bo'lgani uchun ham, tilda paydo bo'lgan va yashab kelmoqda. O'zaro bog'langan bu so'zlar mohiyatiga ko'ra birikmaga yoki gapga teng bo'ladi. Bunday birikma yoki gapdan yaxlitligicha anglashiladigan frazeologik ma'no uni sintaktik birlik deb emas, balki semantik birlik deb qarashga olib keladi. Shu sababli, birikmaga yoki gapga tenglik haqida gapirganda iboraning ichki sintaktik qurilishi ko'zda tutiladi; ibora tarkibini sintaktik tahlil qilish nutq birligining tarkibini emas, balki til birligining tarkibini tahlil qilish bo'ladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Frazeologizmlarni o'rganishda uning asoschisi Sharlo Ballening xizmatlari beqiyosdir. U o'zining —Fransuz stilistikasill (1909) asarida so'z birikmalari, ularning tadqiq etuvchi vositalari haqida qimmatli fikrlarini bayon qilgan. Frazeologik birlıklar va ular shakllanishi yo'llarining qiyosiy tahliliga A.A.Grigoryeva, N.A.Xomyakova, M.I.Gritsko, I.V.Gorodskaya, J.D.Kozimagamedovaning asarlari bagishlangan [2,6]. Shuningdek, A.N.Smirnitkiy, Z.N.Anisenova, A.V.Kumachova, T.N.Derbulova, N.N.Amosova, N.Jshanskiy kabi olimlarning asarlarida frazeologik birlıklar klassifikatsiya qilingan.

G'arb tilshunosligida frazeologizmlar keng va chuqur o'rganilmay kelinmoqda. Frazeologizmlarga idiomalar sifatida qaralib, lug'atlar tuzilgan, lekin chuqur ilmiy tadqiq qilinmagan. Frazeologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ko'proq rus va o'zbek tilshunosligida amalga oshirilmoqda. Bu sohada ayniqsa taniqli Rossiya olimi A.V.Kuninning xizmati kattadir. A.V.Kunin frazeologiyani leksikologiyaning bir qismi emas, balki alohida bir fan sifatida o'rganilishi tarafdarlaridan biri edi. U frazeologizmlarni nutqda qo'llanilishi jihatidan tahlil qiladi va frazeologik birlıklarni ayrim guruhlarga ajratadi. V.V.Vinogradov frazeologik birlıklarning motivatsiyasini hisobga olib, uch turga ajratadi. Ular:frazeologik birikma, frazeologik chatishma,frazeologik butunliklardir . N.Amosova frazeologik birlıklarni tahlil qilar ekan, frazeologik birlıklarni ularning komponentlaridan bittasi yoki hammasi ko'chma ma'noda kelishiga qarab, ikki xil guruhg'a ajratadi. U agar frazeologik birlıklardagi komponentlarning biri ko'chma ma'noda kelsa, ularni «frazema», agar hamma komponentlar ko'chma ma'noda kelsa, ularni —idiomall deb atash fikrini ilgari suradi [3,161]. A.I. Smirnitskiy frazeologik birlıklarni so'zga ekvivalent qilib ko'rsatadi va ularning gapda biror bir gap bo'lagi bo'lib kelishini ta'kidlaydi [4,77] Frazeologiya tez taraqqiy etayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Bu sohada o'zbek tilshunosligida ham salmoqli ishlar mavjud. Bularga Sh.Rahmatullayev (1957), I.Pinhasov (1969), F.Salomov (1961), A.Mamatov (1991) va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin [5,67]. Agar SH.Rahmatullayev o'zbek tilshunosligiga —frazeologiyall va —turg'un birikmalarl tushunchalari, ularni tahlil qilishning asosiy qonuniyatlarini olib kirgan bo'lsa, I.Pinhasov frazeologiyani leksikologiyaning bir qismi sifatida frazeologik birlıklarning yasalishi, ma'nosи, motivatsiyalanganlik darajasini o'rganish sohalarini tadqiq qildi.

## NATIJA VA MUHOKAMALAR

E'tirof etilgan tadqiqotlar ushbu soha rivojiga katta hissa bo'lib qo'shilgan, biroq ta'kidlash joizki, o'zbek tilining obrazli va motivlashgan frazeologik birlıklarning shakl va ma'no munosabati masalasiga e'tibor qaratilmog'i lozim. Frazemalar insonning cheksiz va turli-tuman his-hayajonini, fiziologik jarayonlarini jozibador, badiiy ifodalashga xizmat qiladi, ularning asosiy qismi struktural jihatdan ot+fe'l, ot+sifat (yoki son) +fe'l tuzilishiga ega fe'l iboralar va ot+sifat (son) modeliga ega bo'lgan sifat (son) iboralar, sifat+ot modelidagi ot iboralardir. Masalan, yuragi pokiza, yuragi keng, yuragi tor, yuragi kir, yuragi qora, yuragi taka-puka, yuragi tosh, yuragi sof, yuragi qon kabi.

Frazeologik birlıklar yuqorida keltirilgandek yaxlitlikka ega bo'lishi uchun bir necha xususiyatlarga ega bo'lishi kerak[6,300]ya'ni frazeologik birlıklarni til sathidagi boshqa elementlardan farqlovchi o'ziga xos belgilari mavjud bo'lib, ularni quyidagicha ifodalash mumkin: Birinchidan,frazeologik birlıklar uchun xos bo'lgan formal belgilar:

-turg'unlik;

- ikki yoki undan ortiq leksemadan yasalishi;
- asosan so'z birikmasi modelida ifodalanishi;
- tilda tayyor holda saqlanib nutqga shundayligicha olib kirilishi;

Semantik belgilarga frazeologik birliklar komponentlarining har doim ko'chma ma'noda qo'llanilishi, komponentlar bog'lanishidagi erkinlikning yo'qolishi kabilar kiritiladi. Funksional belgilariga komunikativlik va nominativlikni kiritishimiz mumkin. Stilistik belgilariga ta'sirchanligi, nutqni emotsiyonalligini boyitishi, o'ziga xos baho semalarini o'zida mujassamlashtirib kelishi kabilarni kiritamiz. Frazeologik birliklarning faqat o'ziga xos bo'lgan, tildagi boshqa birliklardan farqlash uchun xizmat qiladigan kategorial belgilari ham mavjud. Ularning asosiy kategorial belgisi, ularning nutq momentida tayyor birlik sifatida qo'llanilishi hisoblanadi. Chunki frazeologik birliklar nutq momentida yasalmaydi, to nutqga kirduncha tilda shakllanib, so'zlovchiga ham tinglovchiga tushunarli birlik sifatida saqlanib qolgan bo'ladi

Frazeologik birliklarning yana bir muhim kategorial belgisi ularning turg'unligidir, ya'ni ular doimo quyidagi jihatlarni o'zida mujassamlashtiradi[7,158]

- doimiy yaxlitlik;
- shakliy turg'unlik;
- komponentlar tartibining buzilmasligi;
- grammatik formaning o'zgarmasligi;

Zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan frazeologik birliklarni turli xususiyatlariga ko'ra klassifikatsiya qilish mumkin. Ya'ni tilshunoslikga oid asarlarda frazeologik birliklarning etimologik, struktur-semantik, qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra, yasalishiga ko'ra, ma'nosidagi motivatsion pog'onasiga ko'ra turkumlarga ajratib ko'rsatilgan. Frazeologik birliklarning etimologik jihatdan klassifikatsiya qilinganda ularning ikki turi mavjud ekanligi guvohi bo'lamiz: ma'lum bir tilning o'ziga xos frazeologik birliklar va o'zlashgan frazeologik birliklar.

Frazeologik butunlikda obrazlilik yuqori darajada bo'ladi. Uning komponentlari orasidagi bog'liqlik asoslangan bo'lib, metaforizatsiya yaqqol ko'zga tashlanadi. Frazeologik butunlikning boshqa frazeologik birliklardan farqlovchi, o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib bular quyidagilar:

- yuqori darajadagi obrazlilik hamda ayrim hollarda so'z birikmalari bilan omonimlik munosabatiga kirishishi;
- alohida komponentlarning semantik butunligi;
- komponentlar tartibiga o'zgartirishlar kiritila olinmasligi;
- boshqa frazeologik birliklar hamda alohida so'zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha olishi;

Frazeologik birliklar o'zlarining semantik, funksional, uslubiy va sintaktik xususiyatlariga ko'ra so'z birikmalari, sodda va qo'shma gaplardan ajralib alohida bir turni tashkil etadi, ya'ni frazeologik birliklarda so'z, so'z birikmalari va gapning struktur belgilari neytrallahib, yaxlitlik kasb etadi.

Frazeologik birliklar til egalari ongidagi, oraliq hodisalar sifatida tebranuvchi va noaniq xarakterga ega. Afsuski so'z va so'z birikmalari va gap uzoq yillar davomida tilshunoslikning asosiy birliklari sifatida qabul qilib kelindi. Bu esa birinchidan til birliklarning ieararxik (pog'onali) munosabatini chuqur tahlil etmaslikka olib keldi, ikkinchidan esa boshqa til birliklari, jumladan frazeologik birliklar semantikasi, funksionaluslubiy xususiyatlari tadqiqiga soya bo'lib turdi. Frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini o'rganish orqali ularda frazeologik polisemiya, frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya, frazeologik omonimiya va paronimiya hodisalari borligi aniqlangan [8,23]

**Frazeologik sinonimiya** - sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, frazeologik birliklar orasida ham anchagina. Ikki frazeologik birlikni sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo'lmaydi. Ayni bir ma'nolilikni teng ma'nolilik deb tushunish yaramaydi. Har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma'no o'zanidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga ega bo'ladi. Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo'ladi, shulardan biri ma'no qirrasidagi farq bo'lishi mumkin. Masalan, *yer bilan yakson bo'lmoq – yer bilan yakson qilmoq, kulini ko'kka sovurmoq – kuli ko'kka sovurildi* ayni bir ma'noni anglatadi. Bu sinonimlar, boshqa belgi- xususiyatlaridan qat'i nazar, ma'no qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma'no bir qadar kuchli. Frazeologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, *bir og'iz, bir shingil, bir chimdim* sinonim frazeologik birliklari, asosida har xil obrazlar yotadi: so'zlash organi,

## ILMIY AXBOROT

bir bosh uzumning qismi, chimdib olinadigan miqdor. Masalan, “*butun tafsiloti bilan, mayda chuydasigacha*” ma’nosini anglatadigan *ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug*“igacha frazeologik birligiga o’zaro sinonim bo’lib, ular tarkibida umumiyl so’z komponent yo’q . Sinonimiya - ma’no asosida belgilanadigan hodisa. Ayni bir ma’nolilik monosemantik frazeologik birliklarda ibora bilan ibora orasida belgilanadi. Agar sinonimik munosabatda polisemantik frazeologik birlik qatnashsa, frazeologik birlikdan emas, balki konkret frazeologik ma’nodan kelib chiqish lozim. Chunki har bir frazeologik ma’no o’zicha sinonimga ega bo’lishi yoki ega bo’imasligi mumkin. Masalan, monosemantik tan olmoq frazeologik birligiga polisemantik (uch ma’noli) bo’yniga olmoq frazeologik birligi birinchi ma’nosida sinonim bo’ladi. Bu uch ma’noli frazeologik birligining ikkinchi ma’nosiga sinonim yo’q, ammo uchinchi ma’nosiga zimmasiga olmoq frazeologik birligi birinchi ma’nosida sinonim.

**Frazeologik antonimiya.** Antonimiya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo’lib, frazeologik birliklarda ham so’zlardagi darajada uchraydi. Antonimiyani belgilash, bir tomondan frazeologik birliklarning lug’aviy ma’nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchi tomondan, polisemiyada bir iboraning ma’nolarini o’zaro farqlashga yordamlashadi, uchinchi tomondan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi. Barcha leksik komponentlari boshqa boshqa so’zlar bilan ifodalangan frazeologik birliklar orasidagi antonimiyani belgilash oson: savol bermoq va javob qaytarmoq; yerga urmoq va ko’kka ko’tarmoq kabi. Birinchi antonimlar tarkibidagi har ikki so’z - komponentlar, ikkinchi antonimlar tarkibidagi birinchi so’z komponentlar o’zaro antonim. Quyidagi antonim iboralar tarkibida qatnashgan birinchi leksik komponentlar - ayni bir so’zning o’zi, ikkinchi leksik komponentlar esa antonim so’zlar: yuragi keng-yuragi tor. Boshqa bir misol: *ko’ngli joyiga tushdi* va *yuragiga g’ulg’ula tushdi*. Bu antonim frazeologik birliklar tarkibidagi leksik komponentlarning uchinchisi ayni bir so’z, birinchisi o’zaro sinonim, ikkinchisi esa o’zaro ma’no munosabati hosil qilmaydi. Ko’rinadiki, antonim frazeologik birliklar tarkibidagi antonim so’z-komponentlar bu frazeologik birliklarning o’zaro antonim bo’lishida muhim rol o’ynaydi; ammo barcha antonim frazeologik birliklar tarkibida antonim so’z komponentlar qatnashavermaydi. Antonimiya frazeologik birliklardan anglashiladigan lug’aviy ma’no asosida belgilanadi . Sinonimiyada bo’lganidek, antonimik munosabat ham polisemantik frazeologik birliklarda har bir ma’noga nisbatan alohida belgilanadi[9,61]

**Frazeologik omonimiya.** Til birliklari orasida shaklan teng kelish hodisasi – omonimiya - frazeologik birliklarda ham bor. Frazeologik omonimiya odatda ikki frazeologik birlik orasida voqe bo’ladi: qo’l ko’tarmoq I va qo’l ko’tarmoq II kabi. Bu yerda omonimiya ibora bilan ibora orasida voqe bo’ladi, keltirilgan frazeologik birliklar barcha muqobil shakllarida teng keladi: qo’l ko’tardim, qo’l ko’taradi kabi. Shunga ko’ra bu frazeologik birliklarni omonimlar deyish mumkin. Omonimik munosabatdagi frazeologik birliklarning leksik tarkibi ikki xil bo’ladi:

1) har ikki frazeologik birlik tarkibidagi bir komponent omonim bo’ladi, boshqa komponent esa ayni bir so’zning o’zi bo’ladi. Masalan, *o’ng kelmoq* I va *o’ng kelmoq* II frazeologik birligi tarkibidagi fe’l komponentlar ayni bir so’z bilan, ism komponentlar esa omonim so’zlar bilan; II frazeologik birligi tarkibidagi ism komponentlar ayni bir so’z bilan, fe’l komponentlar esa omonim so’zlar bilan so’zlar bilan ifodalangan.

2) Har ikki frazeologik birlik tarkibidagi barcha komponentlar ayni shu so’zlarning o’zi bo’ladi. Bunda ikki holat bor:

a) Frazeologik birliklar tarkibidagi so’zlar har xil leksik ma’nosi bilan qatnashadi. Masalan, *dam bermoq* I va *dam bermoq* II frazeologik birliklar tarkibida fe’l komponentlar ayni bir leksik ma’nosi bilan, ot komponentlar esa boshqa-boshqa leksik ma’nosi bilan qatnashgan.

b) Frazeologik birliklar tarkibidagi so’zlar ayni bir leksik ma’nosi bilan qatnashadi. Bunday omonimiyani izohlashda so’z-komponentlarga suyanib bo’lmaydi, frazeologik birliklar asosida yotgan vogelikka, shu vogelikdan olingan obrazga suyaniladi. Masalan, *ichagi uzildi* I va *ichagi uzildi* II frazeologik birliklari tarkibidagi so’z-komponentlar ayni bir leksik ma’nosi bilan qatnashgan, ammo bu frazeologik birliklar asosida boshqa-boshqa obraz yotadi: birinchi frazeologik birlikda qattiq va uzuksiz kulganda ichaklar silkina silkina uzelib ketgudek bo’lishidan, ikkinchi frazeologik birlikda esa uzoq muddat ovqatlanmaslik natijasida ichaklarning torayib, ingichkalashib, uzelish darajasiga yetishidan obraz olingan. Omonomlik asosan quyidagi holatlarda voqe bo’lmaydi:

1) frazeologik birlik tarkibida ko’chma ma’noda qatnashgan leksema bo’lganida: *ko’ngli oq – oq ko’ngil, ko’zining paxtasi chiqdi – ko’zining paxtasini chiqar*

2) frazeologik birlik asosida real voqeylek yotmaydi, shu sababli xuddi shunday erkin bog'lanma tuzilmaydi: bir yoqadan bosh chiqar, ko'ngliga qo'l sol, boshi ko'kka yetdi. Ifoda jihatni teng frazeologik birliklar omofrazemalar deyiladi: *boshiga ko'tar I (kuchli shovqin suron qil), boshiga ko'tar II (yuksak darajada izzat hurmat qil)*

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, frazeologizm bir butun bo'lib, so'zlarning tayyor kombinatsiyasi sifatida ishlataladi, keyingi parchalanishga olib kelmaydi va odatda uning qismlarini qayta joyiga qo'yishga imkon bermaydi. Mustaqil lingvistik fan sifatida frazeologiya nisbatan yaqinda paydo bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Tilshunoslik fani sifatida frazeologiyaning vazifasi muayyan tilning frazeologik asoslarini har tomonlama o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu fanni o'rganishning muhim jihatlari quyidagilardir: frazeologik birliklarning barqarorligi, frazeologik birliklarning va frazeologik birliklarning semantik tuzilishi, ularning kelib chiqishi va asosiy funksiyalari. Frazeologik birliklar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi murakkab vositalar bo'lib, ular badiiy, siyosiy, publisistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi, shuning uchun ham frazeologik birliklarni o'rganish stilistikada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek frazeologik birliklar ixcham ma'no jihatdan salmoqdur birliklar sifatida davr ruhiga mos keladi, chunki hozirgi milliy qadriyatlarning tiklanish davri so'zlovchidan tilni chuqur bilishni, fikrni ixcham, asosli obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalashni talab etadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность, – Л., 1974.
2. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1986 г.
3. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград, 1961.
4. Смирницкий М. Лексикология английского языка. – М., 1956.
5. Рахматуллаев Ш. Феъл туркумига тўғри келувчи фразеологик бирликларнинг грамматик курилишининг асосий кўринишлари. // ТошДУ. Илмий ишлари. – Тошкент, 1957.
6. Содикова Р. Русча-узбекча фразеологик лугат. Узбекистан ССР «Фан» нашириёти. - Т., 1972. – 300 с
7. Смит, Л. П. Фразеология английского языка. – М.: Дрофа, 1998. – 158с 8.
8. Абдуазизов А.А. Матн когнитив фаолият маҳсули – Самарқанд: СамДЧТИ, 2009.– 23 б.
9. Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины.–Л.,1946. – 61 с.
10. Vaxobovna, A. Z. (2022). About Some Persian-Tajik Lexis and Persian Izafetic Constructions in Navoyi's Poem "Saddi Iskandari". *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(11), 55-61.
11. Zarifa, A. (2022). "SADDI ISKANDARI" ASARIDA FORSIY IZOFALI BIRIKMALARNING QO'LLANILISHI. OLIY VA O 'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI FARG 'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 81.
12. AZ Vaxobovna. LINGUISTIC PROPERTIES OF TAHIR MALIK'S WORKS. Modern Journal of Social Sciences and Humanities. 2022, 5. 166-171.
13. Vaxobovna, A. Z. (2022). FRAZEOLOGIK IBORALARLING SEMANTIK-GRAMMATIK TUZILISHI SEMANTIC-GRAMMAR STRUCTURE OF PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(9), 46-51.
14. Alimova, Z., & Ibrohimova, Z. (2022). INGLIZ VA O „ZBEK XALQLARIDA NIKOH TO „YI MAROSIMI BILAN BOGS „LIQ LEKSEMALARLING QIYOSIY TAHLILI. *Science and innovation*, 1(B7), 1277-1281.
15. Vaxobovna, A. Z. (2022). About the lexical-semantic features of anthroponyms. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 7, 1-3.